

## O'ZBEK PSIXOLINGVISTIKASIGA DOIR MULOHAZALAR

**Xolisova Gavharoy Mannobjon qizi**

ADCHTI dotsenti f.f.f.d

**Qayumova Mushtariy Fazliddin qizi**

ADCHTI talabasi

**Annotatsiya:** Har bir jamiyat fan oldiga o‘ziga xos va muayyan talablarni qo‘yadi. Bu jamiyatning taraqqiyot darajasi, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydigan ustuvor sohalarda yetilgan va yechimini kutayotgan muammolar asosida vujudga keladi. Fanning har bir sohasi esa bu muammolar tizimida o‘ziga tegishli masalalarni, undan kelib chiqadigan maqsad va vazifalarini aniqlab, mavjud ilmiy-texnologik salohiyatni unga yo‘naltiradi, muammoning yechimiga olib keladigan samarador va qulay metodologik asoslarni hamda tadqiq usullarini tanlaydi.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek, psixolingvistika, tijorat, iqtisodiyot, ijtimoiy.

**Аннотация:** Каждое общество предъявляет свои специфические требования к науке. Оно возникает исходя из уровня развития общества, проблем, которые возникли и ждут своего решения в приоритетных сферах, обеспечивающих социально-экономическое развитие. Каждая область науки определяет в этой системе проблем свои вопросы, вытекающие из нее цели и задачи, направляет на нее имеющийся научно-технический потенциал, выбирает эффективные и удобные методологические основы и методы исследования, приводящие к решению проблемы.

**Ключевые слова:** узбекский язык, психолингвистика, коммерция, экономика, соц.

**Abstract:** Each society sets its own specific requirements for science. It arises on the basis of the level of development of the society, the problems that have arisen and are waiting to be solved in the priority areas that ensure social and economic development. Each field of science determines its own issues in this system of problems, the goals and tasks arising from it, directs the existing scientific and

technological potential to it, chooses effective and convenient methodological bases and research methods that lead to the solution of the problem.

Key words: Uzbek, psycholinguistics, commerce, economy, social.

Har bir jamiyat fan oldiga o‘ziga xos va muayyan talablarni qo‘yadi. Bu jamiyatning taraqqiyot darajasi, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydigan ustuvor sohalarda yetilgan va yechimini kutayotgan muammolar asosida vujudga keladi. Fanning har bir sohasi esa bu muammolar tizimida o‘ziga tegishli masalalarni, undan kelib chiqadigan maqsad va vazifalarini aniqlab, mavjud ilmiy-texnologik salohiyatni unga yo‘naltiradi, muammoning yechimiga olib keladigan samarador va qulay metodologik asoslarni hamda tadqiq usullarini tanlaydi.

Tarix silsilasida o‘ziga xos o‘rin va ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zbek tilshunosligi fani ham turli davrda har xil muammolar bilan shug‘ullanib, tarixiy taraqqiyotga o‘zining munosib hissasini qo‘shib keldi. Qimmatli ilmiy tadqiqotlari bilan har bir davrning ijtimoiy ehtiyojlari qondirilishida faol qatnashdi, qatnashmoqda. Davr o‘zbek tilshunosligidan aniqlangan lisoniy umumiyliliklarning nutqiy voqelanishini tekshirishga, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish, qo‘llanish doirasini kengaytirish muammolari bilan shug‘ullanishga jiddiy kirishishni talab qilmoqda. Fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bankmoliya tizimi kabi o‘ta muhim sohalarda ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug‘atlar chop etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o‘zlikni anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz. Bu esa lisoniy imkoniyatlarning amaliy voqelanishi, undan samarali foydalanish masalalari bilan shug‘ullanuvchi o‘zbek amaliy tilshunosligining sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika, lingvokognitologiya, lingvokulturologiya, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi kabi zamonaviy fan yo‘nalishlarini yo‘lga qo‘yish asosida amalga oshiriladi.

**Tilshunoslik**, lingvistika — til haqidagi, uning ijtimoiy tabiat, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi, muayyan tillarning amal qilish (faoliyat) qonunlari, tarixiy taraqqiyoti haqidagi fan. **Lingvistika** (lot. lingua - til) - til haqidagi fan. **Psixologiya** (psixo... va ...logiya) — inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, xislatlar to‘g‘risidagi fan. Psixologiyaning asosiy vazifalari — psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini filogenetik va ontogenetik taraqqiyot birligida ochishdan iboratdir. Psixologiya eng avvalo, psixikaning insonga xos shakli bo‘lmish ong va o‘zini o‘zi anglashni tadqiq etadi.

Psixolingvistika esa nutqning hosil bo‘lishi, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini ularning til tizimi bilan o‘zaro bog‘lanishi holatida o‘rganuvchi fan; psixologiya va lingvistikannng sintezidan paydo bo‘lgan. Psixolingvistika inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik nutqiy shakllanishini ishlab chiqib, ularni psixologik eksperimentlar yo‘li bilan tekshiradi. Tadqiqot manbai bo‘yicha tilshunoslikka yaqin bo‘lgan psixolingvistika o‘z tekshirish usullari bo‘yicha psixologiyaga yaqin turadi. Psixolingvistika termini o‘tgan asrning 60-yillari o‘rtalarida amerikalik olimlar tomonidan amaliyotga kiritilgan. O‘zbekistonda ushbu sohada bir qancha ishlar bajarilgan bo‘lsada, haqiqiy ma’nodagi psixolingvistik tadqiqotlar endigina boshlanmoqda.

Psixolingvistikada o‘zaro bog‘lanishli eksperiment, "semantik differensial" va boshqa eksperimental usullar qo‘llanadi. Psixolingvistika bir qator amaliy masalalar xususan, ona tili, xorijiy tilni o‘rgatish; maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy tarbiyasi va logopediya masalalari; miyadagi nutqiy markazlar kasallikkleri klinikasi; nutqiy ta’sir ko‘rsatish muammolari (xususan ommaviy axborot vositalari faoliyatida va targ‘ibot ishlarida); sud psixologiyasi va kriminalistika (masalan, kishilarni ularning nutq xususiyatiga qarab tanib olish, aniqlash va boshqalar)ni nazariy jihatdan tushuntirish uning asosiy vazifasidir. Tilshunoslikda so‘zlovchining ijtimoiy ongi, ijtimoiy hayoti va tilning mazmun tomoni orasidagi aloqalarni o‘rganuvchi sohasidir.

Psixolingvistika psixologiya va lingvistikani o'zida namoyon qilish barobarida nutqni idrok qilish, tilni egallah qonuniyatlari, lingvistik jarayonlarni bilishga munosabati kabi muammolar bilan shug'ullanadi.

Davr o'zbek tilshunosligidan aniqlangan lisoniy umumiylarlarning nutqiy voqelanishini tekshirishga, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish, qo'llanish doirasini kengaytirish muammolari bilan shug'ullanishga jiddiy kirishishni talab qilmoqda. Bu yangi asr tilshunosligi zimmasiga yuklatilayotgan ijtimoiy buyurtmadir

Tilshunoslikning yangi yo'nalishini ifodalovchi *psixolingvistika* yo'nalishi muayyan til imkoniyatlarini egallab undan amalda foydalanuvchilarning ushbu birliklar sistemasiga ongli, amaliy munosabatini tekshiradi

Ko'rinaridiki, psixolingvistik yondashuv o'zbek fanida shakllanayotgan tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida lisoniy imkoniyatlarni so'zlovchi, tinglovchi, ularning muloqot jarayonidagi o'zaro munosabati, muloqot vaziyati singari hodisalar bilan bog'liq holda o'rganadi. Shaxsning lisoniy imkoniyatlardan amaliy foydalanishi so'zlovchi hamda tinglovchining shaxsiy sifatlari, nutq maqsadi, uning turlari (oshkora yoki yashirin), shakllari (xabar, so'roq, buyruq, iltimos, maslahat, salomlashish, xayrlashuv, uzr, tabrik, shikoyat kabilar), nutq strategiyasi va taktikasi, nutq odobi, muloqot madaniyati, so'zlovchi yoki tinglovchining dunyoqarashi, bilim darajasi, qiziqishlari kabi qator omillar bilan mushtarak holda yuzaga chiqadi.

Har bir kishi muayyan muloqot vaziyatida o'z maqsadiga muvofiq ravishda ko'plab variantdosh til hodisalaridan ayni shu vaziyat uchun mosini tanlab qo'llash malakasiga ma'lum darajada ega. Lekin ular qanday nutqiy vaziyatda, kimga nisbatan ishlatilishi, qanday samara berishi jihatidan keskin farqlanadi. Bunda so'zlovchining ushbu sharoit, vaziyat uchun kamroq quvvat sarflab, ko'proq samaraga erishishni ta'minlaydigan til birligini tanlash layoqati ishga tushadi.

Demak, shakllanajak o‘zbek paixolingvistikasi oldida turgan o‘zbek tilining XX asrda ochilgan lisoniy imkoniyatlaridan amaliy foydalanish samaradorligini tadqiq qilish vazifasi ijtimoiy ehtiyoj, davr talabidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Тошкент., 2008. –Б.49.
2. Михеева Л.Н. Время в русской языковой картине мира: лингвокультурологический аспект, [Электронный ресурс]: Дис... д-ра филол. наук: 10.02.01.-М.: РГБ, 2005 (Из фондов Российской Государственной библиотеки) с-76.
3. Серопян А.С. Концепт «время» в творчестве Ф.М. Достоевского культурологический аспект/автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата культурологии Шуя 2009 с. 27 с-16.